



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI TOYLOQ TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

Toyloq sh., A.Temur ko‘chasi, 22-uy.

2023 - yil 31 - may

64-7-104-F/23

Toyloq tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni hamda Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 17-martdagi farmoyishining ijrosini ta‘minlash maqsadida

1. Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 17-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 60-7-0-F/22-sonli farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni bilan davlat boshqaruvi organlarining “Davlat - inson uchun” tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish qamda ularning strategik yo‘nalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (S.Haydarov) Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturida belgilangan maqsadlarga erishilganlik darajasini baholab borish maqsadida tumanning faol, ko‘zga ko‘ringan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining ro‘yxatini taqdim etsin.

4. Nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, ekspertlar va mahalla faollaridan iborat Taraqqiyot strategiyasini qo‘llab-quvvatlash tuman jamoatchilik guruhi (keyingi o‘rinlarda-Jamoatchilik guruhi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman jamoatchilik guruhi (Z.Avazov)ga:

2023-yil davomida Davlat dasturi bajarilishi yuzasidan tizimli ravishda monitoring tadbirlarini amalga oshirgan holda natijalarini jamoatchilik eshituvlari orqali muhokama qilib borish;

10 kun muddat ichida Jamoatchilik guruhining maksadi, vazifalari va ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni aks ettiruvchi tartibni ishlab chiqish va jamoatchilik guruhining birinchi yig'ilishini o'tkazish;

fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilib, aholini tashvishlantiradigan, ijtimoiy noroziligiga olib keladigan masalalarni tezkorlik bilan bartaraf etishga qaratilgan, shuningdek, fuqarolar tomonidan ko'tarilayotgan tashabbuslarni umumlashtirgan holda jamoatchilik loyihalarini amalga oshirish;

tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi bilan birgalikda Jamoatchilik guruhi a'zolarini qo'shimcha rag'batlantirib borish hamda jamoatchilik loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar uchun zarur mablag'larni ajratish bo'yicha takliflarni kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni ijrosini belgilangan muddatlarda va sifatli amalga oshirilishiga tuman hokimining barcha o'rinbosarlari, tuman korxonalar, tashkilot va idoralar rahbarlari mas'ul etib belgilansin.

7. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari J.Xujamurodov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



B.Babonazarov

Toyloq tuman hokimining
2023 yil 31 maydagi
64-7-104-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

Taraqqiyot strategiyasini qo‘llab-quvvatlash tuman jamoatchilik guruhi

TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
<i>Jamoatchilik guruhi rahbari</i>		
1	Avazov Ziyodulla Fayziyevich	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari
<i>Jamoatchilik guruhi rahbari o‘rinbosari</i>		
2	Turayev Musaxon	Tuman Nuroniy jamg‘armasi raisi
<i>Jamoatchilik guruhi a‘zolari</i>		
3	Asadom Shermamat	Toyloq Pedagogeka kolleji deriktori
4	Yuldoshova Mo‘tabar	“Qo‘shchinor” gazetasi tahririyati bosh muharriri
5	Sobirov Qobil	Tuman Fan, ta’lim Kasaba uyushmasi kengashi raisi
6	Nizomov Qahor	O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi tuman Kengashi raisi
7	Axrоров Feruz	Tumandagi 34-umumta’lim maktabi direktori
8	Ulug‘boyeva Dilaferuz	Tumandagi 22-umumta’lim maktabi direktori
9	Sherov Toir	O‘zbekiston ekologik partiyasi tuman Kengashi raisi
10	Usmonov Nasriddin	O‘zbekiston Nogironlar jamiyati tuman bo‘limi raisi (kelishuv asosida)
11	Aminova Matluba	Toyloq tumani “Charog‘bon” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi
12	Akramova Nilufar	“Adolat” sosial-demokratik partiyasi tuman Kengashining raisi
13	Majidova Mavsuma	“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tuman Kengashi raisining 1-o‘rinbosari
14	Xudoynazarov Tuxtamurod	Mehnat faxriysi
15	Ismoilov Begmurod	O‘zbekiston Musulmonlari idorasi viloyat vakili (kelishuv asosida)

Izoh: Jamoatchilik guruhi tarkibidagi shaxslarning egallab turgan lavozimlari o'zgargan taqdirda ularning o'rniga yangi tayinlangan rahbarlar xizmat lavozimi bo'yicha jamoatchilik guruhi a'zosi hisoblanadi.